2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK 378.147:811.111

Bobonazarova Fazilat Pardaboyevna,
Zarmed universiteti Samarqand kampusi
"Xorijiy filologiya" kafedrasi assistent o'qituvchisi

XORIJIY TIL YO'NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDAN TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENTLIGI TARKIBIY KOMPONENTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy til yo'nalishi talabalarining ingliz tilidan tinglab tushunish kompetentligining mazmuni va tarkibiy tuzilishi yoritilgan. Tinglab tushunish kompetentligi motivatsion-qadriyatli, lingvistik-kognitiv, perseptiv-fonologik, mazmuniy-kommunikativ, operatsion-strategik hamda refleksiv-baholash komponentlaridan tashkil topishi asoslangan. Har bir komponentning mazmuni, vazifalari va rivojlanganlik ko'rsatkichlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, kompetentlik, tarkibiy komponent, autentik material, motivatsiya, lingvistik bilim, fonologik idrok, tinglash strategiyasi, refleksiya.

СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ КОМПЕТЕНТНОСТИ В АУДИРОВАНИИ АНГЛИЙСКОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается содержание и структурная структура компетенции понимания английской речи на слух у изучающих иностранный язык. Она основана на том, что компетенция понимания речи на слух включает в себя мотивационно-ценностную, лингвистически-когнитивную, перцептивно-фонологическую, содержательно коммуникативную, операционально-стратегическую и рефлексивно-оценочную компетенции. Раскрываются содержание, задачи и показатели развития каждой компетенции.

Ключевые слова: понимание на слух, компетентность, структурный компонент, аутентичный материал, мотивация, лингвистические знания, фонологическая осведомленность, стратегия слушания, отражение.

STRUCTURAL COMPONENTS OF ENGLISH LISTENING COMPREHENSION COMPETENCE AMONG FOREIGN LANGUAGE STUDENTS

Abstract. This article examines the content and structural composition of English listening comprehension competence among students specializing in foreign languages. It establishes that this competence comprises motivational-value, linguistic-cognitive, perceptual-phonological, content-communicative, operational-strategic, and reflexive-evaluative components. The content, functions, and indicators of development for each component are outlined.

Keywords: listening comprehension, competence, structural component, authentic material, motivation, linguistic knowledge, phonological perception, listening strategy, reflection.

Kirish. Jahon ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri ta'lim oluvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda tildan samarali, mustaqil va maqsadga muvofiq foydalana olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida xorijiy tilni bilish grammatik qoidalar va lug'aviy birliklarni o'zlashtirish bilangina belgilanmaydi. Bugungi kunda ta'lim oluvchidan turli manbalardan kelayotgan axborotni qabul qilish, qayta ishlash, talqin qilish, baholash va unga kommunikativ vaziyatga mos munosabat bildirish ko'nikmalari ham talab etilmoqda. Shu jihatdan tinglab tushunish xorijiy til kommunikativ kompetentligining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tinglash jarayonida inson suhbatdoshining nutqini qabul qiladi, tovushlarni farqlaydi, so'z va grammatik birliklarni taniydi, ularning mazmuniy aloqalarini aniqlaydi, muhim axborotni ajratib oladi hamda kommunikativ vaziyatga mos ravishda munosabat bildiradi. Demak, tinglab tushunish oddiy eshitish jarayoni emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechta kognitiv va kommunikativ amallar amalga oshiriladigan murakkab faoliyatdir.

Xorijiy til yo'nalishi talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyati esa ingliz tilidagi tabiiy va autentik nutqni tushunish, turli talaffuz va aksentlarni farqlash, ma'ruza, suhbat, intervyu va taqdimotlarni tinglash, xorijiy mutaxassislar bilan og'zaki muloqot qilish hamda audiovizual axborotni tahlil etishni talab qiladi. Ayniqsa, videokonferensiyalar, podkastlar, onlayn ma'ruzalar, interaktiv platformalar va boshqa raqamli ta'lim resurslarining keng qo'llanilishi talabalarni turli tezlik, talaffuz va kommunikativ sharoitlarda berilayotgan nutqni tushunishga tayyorlash zaruratini kuchaytirmoqda.

Shu sababli tinglab tushunish kompetentligining tarkibiy tuzilishini aniqlash va uning komponentlari o'rtasidagi funksional bog'liqlikni ochib berish xorijiy til ta'limining nazariyasi va metodikasi uchun dolzarb masalalardan biridir. Komponentlarning mazmunini aniq belgilash talabalarning tinglash jarayonidagi ehtiyojlarini aniqlash, mavjud qiyinchiliklarni diagnostika qilish, tegishli metodik vositalarni tanlash va baholash mezonlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Tinglab tushunish muammosi xorijiy til ta'limi metodikasida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan yo'nalishlardan biridir.

Zamonaviy tadqiqotlarda tinglash passiv qabul qilish jarayoni emas, balki tinglovchi mavjud lingvistik bilimlari, tajribasi va kontekstual ma'lumotlari asosida mazmunni faol ravishda shakllantiradigan interpretatsion faoliyat sifatida qaraladi. M. Rost tinglash jarayonida tinglovchining faol ishtirokini alohida ta'kidlab, mazmunning tayyor holda qabul qilinmasligi, balki tinglovchi tomonidan turli bilim va tajribalar asosida konstruksiya qilinishini ko'rsatadi [5].

J. Field tinglab tushunishni o'qitishda faqat audiomatnni tinglash va undan keyingi savollarga javob berish bilan cheklanmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim jarayonida nutqni real vaqt rejimida qayta ishlash mexanizmlariga, jumladan, tovushlarni farqlash, so'z chegaralarini aniqlash, asosiy mazmunni ilg'ash va kontekst asosida noma'lum birliklar ma'nosini taxmin qilish kabi mikroko'nikmalarga ham e'tibor qaratish lozim [1].

Flowerdew va Miller tinglab tushunishni nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilib, unda lingvistik bilimlar bilan bir qatorda kontekst, tinglovchining oldingi tajribasi va kognitiv faoliyati ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi [2]. Mazkur yondashuv tinglab tushunishni faqat lug'at yoki grammatikani bilish darajasi bilan izohlash yetarli emasligini ko'rsatadi.

L. Vandergrift va C.C.M. Goh tadqiqotlarida tinglash jarayonida metakognitiv faoliyatga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning qarashlariga ko'ra, samarali tinglovchi tinglashdan oldin faoliyatini rejalashtiradi, jarayon davomida o'z tushunishini nazorat qiladi va tinglash yakunida qo'llangan strategiyalar hamda natijalarni baholaydi [4]. Bunday yondashuv talabaning mustaqil tinglovchi sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

A. Gilmore esa autentik materiallardan foydalanish masalasini tahlil qilib, real kommunikativ vaziyatlarga yaqin materiallarning til o'rganuvchilarning tabiiy nutqni tushunish imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlaydi [3]. Autentik materiallarda tabiiy talaffuz, turli nutq tezligi, aksent, pauza, intonatsiya va kontekstual xususiyatlarning mavjudligi tinglab tushunish jarayonini real kommunikativ faoliyatga yaqinlashtiradi.

J.C. Richards tinglab tushunishni gapirish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kommunikativ faoliyat sifatida ko'rib, ta'lim jarayonida tinglash va gapirish ko'nikmalarini integratsiyalash zarurligini asoslaydi [6]. Bu qarash tinglab tushunish natijasini faqat matn mazmunini anglash bilan emas, balki olingan axborotdan keyingi kommunikativ faoliyatda foydalana olish bilan ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman, adabiyotlar tahlili tinglab tushunish kompetentligini birgina lingvistik bilim bilan izohlash mumkin emasligini ko'rsatadi. Mazkur kompetentlik fonetik idrok, leksik-grammatik bilim, mazmunni anglash, pragmatik talqin, strategik boshqaruv va metakognitiv nazorat kabi o'zaro bog'liq jarayonlarning birligi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot xorijiy til yo'nalishi talabalarining ingliz tilidan tinglab tushunish kompetentligining tarkibiy tuzilishini aniqlashga qaratilgan

nazariy-metodik tahlil asosida olib borildi. Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy, kommunikativ, kognitiv va metakognitiv yondashuvlar uyg‘unligidan foydalanildi. Mazkur yondashuvlar tinglab tushunishni alohida nutqiy ko‘nikma emas, balki bilim, ko‘nikma, kognitiv faoliyat, strategiya va refleksiyaning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan kompleks kompetentlik sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish, nazariy tahlil, qiyoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va komponentli tahlil metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalarda keltirilgan yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, tinglab tushunish jarayonining asosiy funksional bosqichlari va ularga mos kompetensiyalar umumlashtirildi.

Tahlil natijasida tinglab tushunish kompetentligining olti asosiy komponenti ajratildi: fonetik-perseptiv, leksik-grammatik, mazmuniy-kommunikativ, pragmatik, strategik va metakognitiv komponentlar. Ushbu komponentlar alohida faoliyat yo‘nalishlari sifatida tavsiflangan bo‘lsa-da, amaliy tinglash jarayonida ular o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari ingliz tilidan tinglab tushunish kompetentligini shakllantirishda uning tarkibiy komponentlarini tizimli ravishda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi. Tinglash jarayonida talaba avvalo nutq signalini qabul qiladi va farqlaydi, keyin uni mavjud leksik-grammatik bilimlari asosida qayta ishlaydi, umumiy mazmunni anglaydi, kommunikativ maqsad va kontekstni aniqlaydi, zarur strategiyalardan foydalanadi hamda o‘z tushunish jarayonini nazorat qiladi. Shu sababli mazkur jarayonning samaradorligini faqat lug‘at boyligi yoki grammatik bilim bilan izohlash mumkin emas.

Fonetik-perseptiv komponent ingliz tilidagi og‘zaki nutqni eshitish orqali idrok etish, tovushlar, bo‘g‘inlar, urg‘u, ritm, intonatsiya, reduksiya va nutq oqimidagi tovush o‘zgarishlarini farqlash qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur komponent tinglab tushunishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Talaba nutq birliklarini eshitib taniy olmasa, keyingi bosqichlarda ularning lug‘aviy va grammatik ma’nosini anglashda qiyinchilikka duch keladi. Shu jihatdan tabiiy tezlikdagi nutq, turli aksentlar va talaffuz variantlari bilan ishlash ushbu komponentni rivojlantirishda muhimdir.

Leksik-grammatik komponent eshitilgan nutq tarkibidagi so‘zlar, iboralar, turg‘un birikmalar va grammatik tuzilmalarni tanish hamda ularning kontekstual ma’nosini anglash bilan bog‘liq. Ushbu komponent orqali talaba tovush shakllarini muayyan lug‘aviy va grammatik ma’nolar bilan bog‘laydi, gaplar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarni aniqlaydi va notanish birliklarning ma’nosini kontekst asosida taxmin qiladi. Yetarli lug‘at zaxirasi va grammatik bilimga ega bo‘lmagan talaba ayrim so‘zlarni eshitib tanishi mumkin, biroq ularning umumiy mazmuniy aloqasini anglashda qiynaladi.

Mazmuniy-kommunikativ komponent tinglangan audiomatnning mavzusi, asosiy g‘oyasi, muhim tafsilotlari, voqealar ketma-ketligi va sabab-oqibat munosabatlarini anglash hamda olingan axborotdan keyingi kommunikativ

faoliyatda foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur komponent tinglashning amaliy natijasini belgilaydi. Talaba intervyuni tinglagach, uning mazmunini qayta bayon qilishi, muhokamada qatnashishi, xulosa chiqarishi yoki so‘zlovchining fikriga munosabat bildirishi mumkin. Demak, tinglab tushunishning samaradorligi eshitilgan axborotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni mazmunan qayta ishlash va kommunikativ vaziyatda qo‘llash bilan belgilanadi.

Pragmatik komponent so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, munosabati, kayfiyati, niyati va bevosita ifodalanmagan ma’nolarini vaziyat va kontekst asosida anglash qobiliyatini qamrab oladi. Real muloqotda bir xil jumla turli vaziyatlarda turlicha ma’no kasb etishi mumkin. Bunday holatlarda faqat lug‘aviy ma’noni tushunish yetarli bo‘lmaydi; intonatsiya, kontekst, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat va kommunikativ vaziyat ham hisobga olinadi. Pragmatik komponentning rivojlanganligi talabaning yashirin ma’nolarni to‘g‘ri talqin qilishi va madaniyatlararo muloqotda kommunikativ jihatdan mos munosabat bildirishiga yordam beradi.

Strategik komponent tinglash maqsadiga erishish va tushunish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli strategiyalardan ongli foydalanishni nazarda tutadi. Tinglovchi umumiy mazmunni aniqlash, muayyan axborotni izlash yoki matnni batafsil tushunish maqsadiga qarab turli strategiyalarni tanlaydi. Global, selektiv, batafsil va tanqidiy tinglash kabi strategiyalar turli kommunikativ vaziyatlarda tinglovchining faoliyatini boshqarishga xizmat qiladi. Strategik kompetentlik rivojlangan talaba notanish so‘z yoki murakkab jumla sababli butun audiomatn mazmunini yo‘qotib qo‘ymaydi, balki kontekst, tayanch so‘zlar va mavjud bilimlaridan foydalanib, axborotni tushunishda davom etadi.

Metakognitiv komponent talabaning o‘z tinglash faoliyatini rejalashtirishi, jarayon davomida tushunish darajasini nazorat qilishi va yakunda o‘z faoliyatini baholashi bilan bog‘liq. Mazkur komponent rejalashtirish, monitoring va baholash-refleksiya jarayonlarini birlashtiradi [4]. Talaba tinglashdan oldin maqsadini belgilaydi, tinglash jarayonida o‘z tushunishini kuzatadi, yakunda esa qaysi jihatlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri anglaganini tahlil qiladi. Bunday yondashuv mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, ajratilgan komponentlar tinglab tushunishning turli jihatlarini ifodalasa-da, ular amaliy faoliyatda bir-biridan ajralgan holda ishlamaydi. Fonetik-perseptiv idrok lingvistik birliklarni tanishga zamin yaratadi, leksik-grammatik bilimlar mazmunni anglashni ta’minlaydi, mazmuniy-kommunikativ faoliyat axborotni yaxlitlashtiradi, pragmatik tahlil kommunikativ maqsad va yashirin ma’nolarni aniqlashga yordam beradi, strategik faoliyat yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etadi, metakognitiv nazorat esa butun jarayonni boshqaradi.

Muhokama. Olingan natijalar tinglab tushunish kompetentligini bir nechta mustaqil ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq funksional tizim sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. M. Rostning tinglashni faol interpretatsion jarayon sifatida izohlashi [5], J. Fieldning mikroko‘nikmalarni

rivojlantirishga oid qarashlari [1] hamda Vandergrift va Gohning metakognitiv yondashuvi [4] mazkur tizimning turli tomonlarini nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Bunda fonetik-perseptiv va leksik-grammatik komponentlar tinglashning lingvistik asosini tashkil etsa, mazmuniy-kommunikativ va pragmatik komponentlar eshitilgan nutqni kontekstual hamda kommunikativ jihatdan talqin qilishni ta'minlaydi. Strategik va metakognitiv komponentlar esa talabaning tinglash faoliyatini mustaqil boshqarishiga imkon beradi. Shu sababli tinglab tushunishni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarda faqat audiomatn mazmuniga oid savollar berish bilan chegaralanish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Mashg'ulotlar tovushlarni farqlash, tayanch so'zlarni aniqlash, mazmunni taxmin qilish, kommunikativ maqsadni anglash, strategiya tanlash va o'z faoliyatini baholash kabi bosqichlarni ham qamrab olishi lozim.

Autentik materiallardan foydalanish ham ushbu komponentlarning kompleks rivojlanishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Tabiiy suhbatlar, intervyular, podkastlar, videomateriallar va ma'ruzalar talabalarga real nutq tezligi, turli talaffuz variantlari, intonatsiya va kontekstual belgilar bilan ishlash imkonini beradi [3]. Bunday materiallar asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabaning nafaqat eshitilgan axborotni tushunish, balki uni baholash, talqin qilish va kommunikativ vaziyatda qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, tinglab tushunish kompetentligini baholashda ham komponentli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki talaba audiomatnning umumiy mazmunini to'g'ri tushungan bo'lsa-da, fonetik farqlash yoki pragmatik talqinda qiyinchilikka ega bo'lishi mumkin. Komponentlar bo'yicha alohida diagnostika qilish esa mavjud bo'shliqlarni aniqroq aniqlash va individual metodik yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Xulosa. Xorijiy til yo'nalishi talabalarining ingliz tilidan tinglab tushunish kompetentligi murakkab va ko'p tarkibli kommunikativ-kognitiv hodisa bo'lib, uning shakllanishi bir nechta o'zaro bog'liq jarayonlarning uyg'unligiga asoslanadi. Tadqiqot natijasida mazkur kompetentlikning fonetik-perseptiv, leksik-grammatik, mazmuniy-kommunikativ, pragmatik, strategik va metakognitiv komponentlardan tashkil topishi nazariy jihatdan asoslandi.

Mazkur komponentlarning har biri tinglab tushunishning muayyan jihatini ta'minlaydi. Fonetik-perseptiv komponent nutq signalini qabul qilish va farqlashga, leksik-grammatik komponent til birliklarini anglashga, mazmuniy-kommunikativ komponent asosiy va ikkilamchi axborotni qayta ishlashga, pragmatik komponent so'zlovchining maqsadi va yashirin ma'nolarini aniqlashga, strategik komponent tinglash jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga, metakognitiv komponent esa tinglash faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashga xizmat qiladi.

Shu bois ingliz tilini o'qitish jarayonida tinglab tushunish kompetentligini rivojlantirish faqat audiomatnlarni tinglatish va savollarga javob oldirish bilan chegaralanmasligi kerak. Ta'lim jarayonida autentik materiallar, strategik

topshiriqlar, pragmatik vaziyatlar va refleksiv faoliyatni uyg‘unlashtirish orqali tinglashning barcha komponentlarini izchil rivojlantirish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv talabalarning tabiiy inglizcha nutqni tushunishi, axborotni mustaqil qayta ishlashi, kommunikativ vaziyatga mos munosabat bildirishi va o‘z tinglash faoliyatini boshqarishiga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ajratilgan komponentlarning rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish, diagnostik topshiriqlar tizimini yaratish hamda ularning talabalarning real tinglab tushunish natijalariga ta’sirini eksperimental jihatdan tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Field J. Listening in the Language Classroom. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
2. Flowerdew J., Miller L. Second Language Listening: Theory and Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
3. Gilmore A. Authentic Materials and Authenticity in Foreign Language Learning // Language Teaching. 2007. Vol. 40, No. 2. P. 97–118.
4. Goh C.C.M., Vandergrift L. Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action. New York: Routledge, 2012.
5. Rost M. Teaching and Researching Listening. 3rd ed. London: Routledge, 2016.
6. Richards J.C. Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694